

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

**JAHON TILSHUNOSLIGIDA GIPERBOLA QURILMASI VA UNDAGI PRAGMATIK
YONDASHUVLAR TADQIQI**

H.Y.Xusanov

mustaqil izlanuvchi, Andijon Davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Maqolada badiiy asar mualliflari birinchi navbatda tilning ekspressiv vositalarining imkoniyatlaridan foydalanishi sababli giperboladan foydalanilishini, kuchli his-tuyg‘ular – qayg‘u, quvonch, dahshat, hayrat va boshqalarni ifodalashda foydalanilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Har qanday dialogik yoki monolog nutqlar giperbolaga boy bo‘ladi, lekin bu faqat so‘zlovchining o‘z maqsadini ta‘kidlashini bildirmaydi, balki uning hayajonlangan holatini ham aks ettiradi. Giperbola qurilmasi va undagi pragmatik yondashuvlarga oid fikr va mulohazalar maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: giperbola, majoziy xususiyatlar, lingvistik semiotika, tasvir, giperbolik o‘lchov, atribut, tasviriy voqelik, stilistik vosita.

**ИЗУЧЕНИЕ СТРУКТУРЫ ГИПЕРБОЛИ И ПРАГМАТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В
МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ**

Х.Ё. Хусанов

*научный исследователь, Андижанского государственного
медицинского института*

Аннотация: В статье представлены сведения об использовании гиперболы авторами литературных произведений, прежде всего, в связи с использованием выразительных средств языка, а также её применением для выражения сильных эмоций – грусти, радости, ужаса, удивления и т. д. Любая диалогическая или монологическая речь изобилует гиперболами, но это не только свидетельствует о том, что говорящий акцентирует свою цель, но и отражает его возбуждённое состояние. В статье отражены размышления и соображения о приёме гиперболы и прагматических подходах к ней.

Ключевые слова: гипербола, образные признаки, лингвистическая семиотика, образ, гиперболическое измерение, признак, образная реальность, стилистический прием.

**THE STUDY OF HYPERBOLE STRUCTURE AND PRAGMATIC APPROACHES IN
WORLD LINGUISTICS**

Kh.Y.Khusanov

independent researcher, Andijan State Medical Instituti

Annotation: The article presents information about the use of hyperbole by authors of literary works primarily due to the use of the expressive means of language, and its use in expressing strong emotions - sadness, joy, horror, surprise, etc. Any dialogic or monologue speech is rich in hyperbole, but this does not only indicate that the speaker emphasizes his goal, but also reflects his excited state. The article reflects thoughts and considerations on the device of hyperbole and pragmatic approaches to it.

Key words: hyperbole, figurative features, linguistic semiotics, image, hyperbolic dimension, attribute, figurative reality, stylistic device.

Kirish. Badiiy asar mualliflari birinchi navbatda tilning ekspressiv vositalarining imkoniyatlaridan foydalanishi sababli giperboladan foydalanilishini, boshqa stilistik vositalar singari, tildan izlash kerak. Giperboladan kuchli his-tuyg‘ular – qayg‘u, quvonch, dahshat, hayrat va boshqalarni ifodalashda foydalaniladi. Ba'zi xabar yoki ma'lumotdan juda hayajonlangan inson o'z tuyg‘usining daraja miqdoriy karakteristikasini ifodalash uchun o'ziga ma'lum bo'lgan bilimga asoslanib intensivlik o'lchovini bildiruvchi so'zlardan foydalanadi. Bu his – tuyg‘uni ifodalashning eng qisqa va samarali usuli hisoblanadi. [1:2005, 24] Har qanday dialogik yoki monolog nutqlar giperbolaga boy bo'ladi, lekin bu faqat so'zlovchining o'z maqsadini ta'kidlashini bildirmaydi, balki uning hayajonlangan holatini ham aks ettiradi. [2:2015, 74-75]

Yozma nutning ritorika bo'limida giperbola keng qo'llanilgan. Yozuvchi va shoirlar og'zaki notiqlik nutqlarida qo'llaniladigan shakllarini o'zgartirib, modellashtirib o'zlarining yozma badiiy ijodlarida tinglovchiga ta'sir ko'rsatish uchun o'zlashtiradilar. Ularning mana shunday foydalanishlariga adabiy ijod giperbolizatsiyaning hodisa sifatida estetik va stilistik salohiyatiga e'tibor qaratiladi. Giperbolizatsiya usullarini tushunish uchun giperbolani qayta ko'rib chiqish, shakllanishi va faoliyatiga oid umumiy qonuniyatlariga aniqlik kiritish lozim. [3:1993, 137]

Giperbola - so'zlovchiga tegishli bo'lgan narsa, hodisa yoki harakatning katta (yoki kichikroq) o'lchovini ataylab majoziy, real bo'lmagan bo'rttirib ko'rsatishning lingvistik-stilistik vositasi bo'lib, bir vaqtning o'zida xususiyat va bu xususiyatning individual hissiy va estetik idrokini yetkazish o'lchovini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Giperbolaning lingvistik shakli voqelik elementining bilvosita belgisini o'z ichiga oladi. [4:1977, 129] S.N.Syrovatkinning "Funksional lingvistik semiotika nuqtai nazaridan giperbolizatsiya fenomeni" maqolasi semiozning turli o'lchovlarida giperbolizatsiya hodisasini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. [5:1978, 119] Biroq, muallif olingan ma'lumotlarni umumlashtirmagan, ularni o'zaro bog'liqlikda ko'rsatmaganligi sababli, u giperbolaning yagona ta'rifini berishning iloji yo'q deb hisobladi, bu esa belgining tarkibidagi komponentlarga oid ba'zi fikr-mulohazalarni keltirib chiqardi. Giperbolaning ifoda rejasi ham, mazmun rejasi ham murakkab tuzilishga ega bo'lganligi sababli, taqdim etish qulayligi uchun ular alohida ko'rib chiqiladi.

I.R.Galperin tasvirni "tushunchalardan olingan ikkinchi darajali taassurotlar" deb ta'riflab, "mavhum tushuncha aniq obyekt orqali tasvirlanganda" paydo bo'ladi, deb izohlaydi. [6:1977, 64] Ushbu ta'rif giperbola uchun ham amal qiladi, chunki bunda "tasvir" katta (kichik) miqdor tushunchasini qayta ko'rib chiqish natijasida yaratilgan yuqori darajadagi intensivlik taassurotidir. Biroq giperbolaning tasviri metafora, metonimiya va boshqa stilistik vosita tasvirlaridan yuqoriroq abstraksiya darajasida yaratilganligi bilan farq qiladi. Giperbolik tasvirni yaratishda ishtirok etadigan ikkala tushuncha ham mavhum, ammo giperbola bilan bog'liq holda mavhumlilik darajasini hisobga olish kerak. Giperbolik nom yuqori darajadagi intensivlik tushunchasiga nisbatan o'ziga xos tasvir vazifasini bajaradi. [7:1977, 76]

Tadqiqot metodologiyasi. Giperbola modeli uchta komponentni o'z ichiga oladi, ular yordamida aniqlanib ajratiladi: 1) atribut (P), o'lchov intensivligi giperbola ifodasining denotatidir; 2) xarakteristikaning haqiqiy o'lchovi (RM); 3) xususiyatning giperbolik o'lchovi (HM).

Quyidagi misol yordamida giperbolizatsiya mexanizmini ko'rib chiqamiz:

[During the three terrible hours that the play had lasted, he had lived centuries of pain, aeon upon aeon of torture. \(O.Wilde. The Picture of Dorian Gray\)](#)

Xususiyatning haqiqiy o'lchovi uning gnoseologik tarkibidagi xususiyat o'lchovi bilan bevosita ifodalanadi: uning lisoniy shakli mazmuni avtonom mavjud predmet sifatida xususiyatning katta/kichik o'lchovini aks ettiradi. Haqiqiy o'lchovning lingvistik kombinatsion xususiyatlari shakli belgilangan o'lchov va xarakterli atributning aloqa va munosabatlariga mos keladi. Tahlil qilingan misolda “*uch soatlik*” (three hours) davrning haqiqiy davomiyligi to'g'ridan-to'g'ri miqdoriy raqam bilan qisqa vaqt davomida odatiy o'lchov birligida ifodalanadi.

Giperbolik o'lchovning yo'nalishi ham avtonom xususiyat (atributning ma'lum bir miqdordagi katta/kichik o'lchovi) ga ega. Biroq, giperbolik o'lchovni belgilash uchun lingvistik shaklni tanlashda subyektning kommunikativ va pragmatik funksiyalarga, shuningdek, o'zining psixologik moyilligiga asoslanadi. Natijada voqelik hodisalari orasidagi real munosabatlar tuzilishi buziladi.

1-misolda bu kattaroq, o'zaro mos bo'lmagan o'lchov birligi *century – asr* – ko'plikda ishlatilishi bilan namoyon bo'ladi. Giperbolik ta'sirchanlikni yaratishda ishlatilgan ikkala o'lchov birligi davr davomiyligi belgisi giperbolizatsiyaga tobe ekanligini ko'rsatadi; bu misolda, haqiqiy va giperbolik o'lchovlarni taqqoslashda stilistik vositaning mikrokontekstidan giperbolizatsiyalangan xususiyati tiklanadi.

Giperbolizatsiya giperbolaning tarkibiy qismlari orasidagi munosabatlar xarakterini belgilovchi kontrastli xususiyatning giperbolik noreal o'lchovi uning haqiqiy o'lchovidan ancha kattaroq (kamroq) taqqoslash mexanizmiga asoslanadi. Giperbola mexanizmi asosida ratsionallik va hissiylikning o'zaro chambarchas bog'liqligini taqqoslash jarayonining o'ziga xos xususiyatini belgilash yotadi va bir-biridan uzoqda bo'lgan belgining ikkita haqiqiy va noreal o'lchovining konjugatsiyasini ta'minlaydi. Belgining real va giperbolik o'lchovlarini oqilona, mantiqiy yondashish bilan solishtirishga barcha voqelik hodisalarining nisbiylik printsiplari yashiringan, chunki giperbolik o'lchov mutlaq qiymat xarakteriga ega. Atributning o'lchovi kamyob, mutlaqo katta yoki kichik qilib ko'rsatiladi, shuning uchun taqqoslanayotgan o'lchovni “ko'proq-kamroq” mezoni bilan qiyoslashga hojat yo'q, chunki tengsizlik juda aniq (*taqqoslang: an hour (soat) – a century (asr)*) ko'rinib turadi.

Giperbola va bo'rttirish o'rtasidagi farq. Giperbolaga xos bo'lgan yaqqol noreallik uni bo'rttirishdan (pastlashdan) ajratishga imkon beradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, giperbola – bu tinglovchini ma'lumotlarning ishonchligiga ishontirishni asosiy maqsad qilmaydigan qasddan, ochiq bo'rttirishdan foydalanish, oddiy bo'rttirish esa aynan shu maqsadni ko'zlaydi. Keling, quyidagi parchani yuqorida muhokama qilgan misol bilan taqqoslaylik:

“... you may believe it or not as you think proper, that there are ladies - born ladies - belonging to families - Families! - who next to worship the ground I walk on”. (Ch. Dickens “Hard Times”)

1-misolda, ma'lumotning haqiqiy emasligi davr davomiyligining tanlangan atributiga “asr” vaqt o'lchovining kattaroq, juda mos bo'lmagan birligini qo'llashda aniq namoyon bo'ladi. 2-misolda o'z obro'sini oshirishga urinayotgan personajning bayonoti faktlari o'rtasidagi nomuvofiqlik butun asar konteksti inobatga olingandagina aniqlanadi – u tanigan zodagonlarning yagona vakili Sparsit xonim kambag'al oiladan bo'lib keladi, va uning uy xizmatkori sifatida ish qilishga majbur bo'ladi.

Tahlil va natijalar. giperbolaning yuqorida ko'rsatilgan leksik stilistik vositalar bilan yaqinlashishi holatlari ko'rib chiqilishi sababli, biz ularning tasviri tabiatan murakkabroq ekanligini ta'kidlaymiz, chunki u bir vaqtning o'zida ularning umumiylikdagi bir nechta yetakchi xususiyatlarni taqqoslashni o'z ichiga oladi, shuning uchun biz stilistik vositalar tasvirini ikkinchi tartibli tasvirlar deb ataymiz. Obyektning ma'lum bir xususiyatini bo'rttirib ko'rsatish uchun ikkinchi darajali majoziy vositalardan foydalanish imkoniyati mavjud, bunda har qanday majoziy xususiyatlardan biri ta'kidlanadi, qolganlari esa yashiriladi.

Bundan tashqari, giperbola tasviri sanab o‘tilgan leksik stilistik vositalarning tasviridan farq qiladi, chunki ikkinchisining tasviriy voqelik hodisalari o‘rtasidagi real munosabatlarning strukturasi nusxalashga asoslangan, giperbolik tasvirning asosi esa tuzilishini buzish, uni boshqasi bilan almashtirishdan iborat. [8:1967, 32]

Xulosa va takliflar. Demak, giperbolada bo‘rttirishlik vazifasi obrazlilik vazifasi bilan uzviy bog‘liq: bu funksiyalarning ikkalasi ham bir-birini to‘ldirishlik munosabatida bo‘lib, bitta giperbolizatsiya funksiyasiga (ya‘ni obrazli bo‘rttirish) birlashishi mumkin, giperbola esa tasviriy stilistik vosita sifatida tasniflanadi.

Giperbola bilan metafora, metonimiya, tashbeh tasvirlari o‘rtasidagi yana bir sifat farqini qayd etish kerakki, giperbolizatsiya jarayonida ma‘lum bir xususiyatning faqat miqdoriy (bo‘rttirilgan va haqiqiy) xarakteristikalarini o‘zaro bog‘liq. Korrelyatsiya bitta kontseptsiya doirasida amalga oshiriladi, shuning uchun giperbolani birinchi tartibli tasvir deb atash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kolshnaskiy V.G. Логика и структура языка . Лингвистическое наследие 20 века. URSS 2005, p. 24
2. Karaboev J.V. - Лингвокультурологические особенности вербализаторов концептуальной семантики “гипербола” // Вестник Челябинского государственного университета. Филология Искусствоведение. Выпуск 95. - Челябинск, 2015, p.74-75
3. Jackendoff R. Semantics and Cognition. 6th ed. Cambridge (Mass.): The MIT Press. 1993, p.137
4. Сыроваткин С.Н. Явление гиперболизации в плане функциональной лингвосемиотики. В сб.: Вопросы лексикологии, стилистики и грамматики в аспекте общего языкознания. Калинин, 1977, с.129
5. Калинин - Вопросы лексикологии, стилистики и грамматики в аспекте общего языкознания, 1978, с 119
6. I. V. Galperin - "Stylizations", 1977, p.64
7. В. Г. Гак также рассматривает широту понятия как критерий его абстрактности. См.: "Сопоставительная лексикология", М., 1977, с. 76.
8. Л. В. Уваров. "Образ, символ, знак". Минск, 1967, с. 32